Ayniqsa, Samarqand viloyati misolida turistik rivojlanishning yangi bosqichi shakllanmoqda. Samarqand jahon miqyosida tan olingan madaniy-tarixiy markaz sifatida Registon maydoni, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda



majmuasi va Siyob bozori kabi obyektlar orqali turistlar oqimini samarali jalb etish imkoniyatiga ega. 2024-yilda viloyatga 2 million 523 ming nafardan ortiq xorijiy va 4 million 715 ming nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurgani hududning yuqori turistik salohiyatini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar madaniy meros yadrosiga tutash hududlarda oqimni optimal taqsimlash, infratuzilma yuklamasini muvozanatlash va xizmatlar sifatini barqaror darajada saqlash bo'yicha ilg'or boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat "zichlik-xizmat sifati-aholi roziligi" o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash uchun kompleks rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur sharoitda haddan tashqari turistlashuv masalasini chuqur ilmiy tahlil qilish va uni oldindan boshqarishga qaratilgan amaliy yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Samarqand viloyati misolida 2024-yil rasmiy statistik ma'lumotlariga tayangan holda turistik oqimning hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash, ushbu ta'sirni optimallashtirishga qaratilgan samarali usullarni tizimlashtirish hamda turistik manzilni boshqarish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda "oqim-sig'im-bosim-ta'sir" zanjiriga asoslangan hududiy boshqaruv modeli taklif etiladi. Ushbu model turistik oqimni nafaqat miqdoriy ko'rsatkich sifatida, balki uning hududiy va mavsumiy taqsimlanishi, infratuzilma sig'imi hamda ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Shuningdek, Samarqand uchun erta ogohlantiruvchi indikatorlar tizimini shakllantirish va dinamik boshqaruv vositalari portfelini joriy etish istiqbollari asoslab beriladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot turizmni miqdoriy kengaytirish bosqichidan sifat jihatdan boshqarishga yo'naltirilgan modelga bosqichma-bosqich o'tish zaruratini ilmiy jihatdan yoritadi. Samarqand misolida olingan xulosalar nafaqat mazkur hudud, balki O'zbekistonning boshqa tarixiy va madaniy turistik manzillari uchun ham moslashtirilishi mumkin bo'lib, barqaror turizm siyosatini ishlab chiqishda muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Overtourism zamonaviy turizm tadqiqotlarida mustaqil ilmiy tushuncha sifatida shakllanib, asosan barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu hodisa barqarorlikning an'anaviy "uch ustuni" — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar bilan bir qatorda, sotsio-psixologik hamda sotsio-siyosiy sig'im tushunchalarini ham qamrab olgan holda talqin qilinadi. Shu yondashuvdan kelib chiqib, overtourism turistlar sonining mutlaq ko'pligi bilan emas, balki hududning jismoniy, ijtimoiy va institutsional sig'imidan ortiqcha bosim yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bunday holatda muammo turistlarning mavjudligida emas, balki ularning noto'g'ri boshqarilishi hamda makon va vaqt bo'yicha nomutanosib taqsimlanishida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda overtourism masalasi bo'yicha olib borilgan tizimli adabiyotlar sharhlari ushbu hodisaning sabablari va oqibatlarini kompleks tizim sifatida ochib beradi. Tadqiqotlarda arzon aviaqatnovlarning kengayishi, qisqa muddatli ijara platformalarining ommalashuvi, kruiz turizmi oqimining ortishi hamda ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladigan "Instagram nuqtalar" effekti overtourismning asosiy drayverlari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu omillar natijasida turistlar oqimi muayyan markaziy hududlarda jamlanib, uy-joy bozori nomutanosibligi, kommunal xizmatlar narxlarining oshishi, madaniy meros obyektlarining jismoniy degradatsiyasi hamda mahalliy aholining turizmga nisbatan noroziligi kuchayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Ilmiy manbalarda aynan turistik manzilni boshqarish tizimining zaifligi ushbu muammolarni kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi.

Mazkur kontekstda manzil boshqaruvi, xususan, turistik destinatsiyani boshqaruvchi tashkilotlar (DMO) va shahar boshqaruvi organlari o'rtasidagi hamkorlik overtourism ta'sirini pasaytirishda hal qiluvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali institutsional muvofiqlashtirish mavjud bo'lmagan sharoitda, hatto yuqori iqtisodiy foyda keltirayotgan turizm ham ijtimoiy va ekologik barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Shu sababli adabiyotlarda overtourismni kamaytirishga qaratilgan boshqaruv choralarini tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ilmiy manbalarda ushbu choralar bir necha asosiy guruhlariga ajratiladi. Birinchidan, me'yoriy-tartibga solish instrumentlari, jumladan, kvotalar, lisenziyalash mexanizmlari hamda muayyan faoliyat turlariga nisbatan cheklovlar qo'llaniladi. Ikkinchidan, moliyaviy instrumentlar orqali turistlar xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish, xususan, turist solig'i, kirish to'lovi va differensial narxlash mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti keng tarqalgan. Uchinchidan, raqamli va axborot texnologiyalari asosida real vaqt rejimida monitoring, bronlash hamda vaqt-slot tizimlari joriy etilib, turistik oqimni aniq va moslashuvchan boshqarish imkoniyati yaratiladi. To'rtinchidan, marketing va hududiy dispersiya yondashuvi orqali turistlar oqimini markaziy hududlardan periferik yo'nalishlarga yo'naltirishga intilish kuzatiladi. Beshinchidan, infratuzilmaviy va mobillik choralari, jumladan, piyodalar hududlarini kengaytirish va "park&ride" tizimlarini joriy etish orqali shahar muhitiga tushayotgan bosimni kamaytirish maqsad qilinadi.

Turistik sig'imni aniqlash masalasida ham ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasi kuzatiladi. Klassik tadqiqotlarda asosan ekologik sig'imga urg'u berilgan bo'lsa, zamonaviy shahar turizmi sharoitida bunday



yondashuv yetarli emasligi ta'kidlanadi. Aholining hissiy holati, ijtimoiy qabul qilish darajasi va turizmga nisbatan munosabati ham sig'im tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Shu sababli onlayn sharhlar, ijtimoiy tarmoqlardagi baholar hamda hissiy indekslarga asoslangan yondashuvlar orqali "shahar sig'imi"ni o'lchash ilmiy jihatdan asoslangan metod sifatida taklif etilmoqda. Amaliy rejalashtirish nuqtayi nazaridan esa strategik qarorlar qabul qilishda har bir turistik manzilning o'ziga xos sharoitlariga moslik darajasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va uning hududlari bo'yicha olib borilgan mahalliy tadqiqotlarda turistik salohiyat, klasterlashuv, infratuzilma rivoji hamda hududiy brend masalalari keng yoritilgan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida turistik salohiyat tahlili va hududiy rivojlanish tendensiyalari chuqur o'rganilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda overtourismni maxsus indikatorlar orqali o'lchash, uni erta ogohlantirish modellari bilan bog'lash va turistik manzilni boshqarish tizimiga integratsiyalash masalalari yetarli darajada institutsionallashtirilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan bo'lib, overtourism hodisasini hududiy barqaror rivojlanish kontekstida kompleks baholashga intiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Samarqand viloyati madaniy va shahar turizmi doirasida haddan tashqari turistlashuv, ya'ni overtourism yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan hudud sifatida tanlandi. Bunga viloyatda yirik tarixiy-madaniy meros obyektlarining yuqori kontsentratsiyasi, turistlar oqimining mavsumiy va hududiy jihatdan notekis taqsimlanishi hamda shahar markazida infratuzilma sig'imining cheklanganligi asos bo'ldi. Tadqiqot hududini tanlashda Samarqandning respublika va xalqaro miqyosdagi madaniy turizm markazi sifatidagi roli hamda so'nggi yillarda turistlar tashrifining tez sur'atlarda o'sishi muhim mezon sifatida e'tiborga olindi.

Tadqiqotning axborot bazasi rasmiy statistik va institutsional manbalarga tayanadi. O'zbekiston bo'yicha 2024-yil xalqaro turistik oqimi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy nashrlaridan olindi. Samarqand viloyati bo'yicha 2024-yil sayyohlar tashrifi, infratuzilma holati va joylashtirish vositalariga oid ko'rsatkichlar viloyatning rasmiy axborot materiallari hamda viloyat statistika boshqarmasining press-relizlari asosida shakllantirildi. Hududlar kesimida joylashtirish infratuzilmasini qiyosiy baholashda respublika viloyatlari va shahar statistika boshqarmalarining 2024-yilgi press-relizlaridan foydalanildi.

Xorijiy tajribani o'rganishda esa 2024-yilda Venesiyada joriy etilgan kirish to'lovi piloti, Amsterdamda yangi mehmonxona qurilishiga nisbatan cheklov siyosati hamda Barselona va Kataloniya hududida 2024-yil turizm faoliyati ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqotda overtourism hodisasini faqat turistlar soni orqali emas, balki sig'im va zichlik bilan bog'liq indikatorlar asosida baholash ustuvor yondashuv sifatida qabul qilindi. Shu maqsadda turizm zichligi indeksi hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$TZI = \frac{V}{P}$$

bu yerda V — yil davomida qayd etilgan tashriflar yoki kechalashlar hajmi, P esa aholi soni yoki tanlangan funksional hudud maydonini anglatadi. Turizm zichligi indeksi hududga tushayotgan turistik bosimni aholiga nisbatan baholash imkonini beradi.

Joylashtirish infratuzilmasiga tushayotgan yuklamani aniqlash maqsadida joylashtirish yuklamasi ko'rsatkichi qo'llanildi:

$$JYu = \frac{G}{B}$$

bu yerda G — joylashtirilgan shaxslar soni, B — mavjud joylar (koykalar) soni. Ushbu ko'rsatkichning ortishi mavsumiy tiqilish va servis bosimi kuchayish ehtimolini ifodalaydi.

Bundan tashqari, overtourism xavfini kompleks baholash uchun kompozit bosim indeksi taklif etildi. U quyidagi tavsiyaviy model asosida hisoblanadi:

$$KBI = w_1 z_1 + w_2 z_2 + w_3 z_3 + w_4 z_4$$

bu yerda z_i — normallashtirilgan indikatorlar (joylashtirish yuklamasi, markaziy hududlardagi tashrif zichligi, chiqindi hajmi, aholi shikoyatlari), w_i esa ularning vazn koeffitsiyentlaridir. Kompozit bosim indeksi manzil boshqaruvida erta ogohlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.



Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va hisobiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida xorijiy tajriba bilan Samarqand viloyati sharoiti taqqoslandi, infratuzilma yuklamasi hisoblandi va overtourismni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil ma'lumotlari asosida O'zbekiston va Samarqand viloyatida turistik oqimlar hajmi, infratuzilma sig'imi hamda hududiy bosim darajasini tahlil qilish overtourism xavfining shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Natijalar makro (mamlakat), mezo (viloyat) va mikro (yadro hududlar) darajalarida ko'rib chiqildi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan chet el fuqarolari soni 8,2 million nafarni tashkil etdi [7]. Ushbu ko'rsatkich mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur o'sish ikki tomonlama xulosani yuzaga chiqaradi. Bir tomondan, turizm eksporti, xizmatlar sektori daromadlari va bandlik uchun ijobiy imkoniyatlar kengaymoqda.

Makro darajada barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy masala turistlar oqimining umumiy hajmini oshirish emas, balki ushbu oqimni sifat jihatdan boshqarish, ya'ni hududlar va mavsumlar bo'yicha oqilona taqsimlashdan iborat. Turizm hajmining o'sishi bevosita merosga bosimni kuchaytirishi emas, aksincha, uni asrash va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.

Samarqand viloyati bo'yicha 2024-yil rasmiy ma'lumotlar hududning madaniy turizm markazi sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi. Xususan, yil davomida viloyatga 2 523 000 nafardan ortiq xorijiy va 4 715 000 nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurgan [8]. Ushbu ko'rsatkichlar Samarqandni respublika miqyosida eng yuqori turistik yuklama tushayotgan hududlardan biri sifatida ajratib ko'rsatadi.

Biroq boshqaruv nuqtayi nazaridan muhim savol turistlar sonining umumiy hajmida emas, balki ularning qayerda va qachon jamlanayotganidir. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, eng yuqori zichlik asosan Registon maydoni, Siyob bozori atrofi, Bibixonim–Shohi Zinda yo'laklari, markaziy piyoda ko'chalar va transport tugunlarida shakllanadi. Aynan ushbu nuqtalarda infratuzilmaviy, ekologik va ijtimoiy bosim maksimal darajaga yetadi.

Infratuzilma sig'imi bo'yicha Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda viloyatda 361 ta joylashtirish obyekti, 6 603 ta nomer va 13 827 ta joy mavjud bo'lib, ular orqali 428 451 nafar kishi joylashtirilgan [9]. Ushbu raqamlarni umumiy tashriflar soni (7,238 mln) bilan solishtirish muhim metodologik xulosani beradi: joylashtirilganlar ulushi umumiy tashriflarga nisbatan juda past. Bu holat shahar turizmi uchun xos bo'lgan ikki asosiy fenomenni ko'rsatadi. Birinchidan, Samarqandda kunlik tashriflar, ya'ni ekskursiya va tranzit sayyohlar ulushi juda yuqori. Ikkinchidan, norasmiy joylashuv shakllari — qarindosh-urug'nikida qolish yoki xususiy ijaralar — keng tarqalgan.

Natijada overtourismning asosiy bosimi aynan kunduzgi vaqtda shahar markazida jamlanadi. Bu transport tizimi, sanitariya va tozalik, xavfsizlik, tarixiy obidalar saqlanishi hamda mahalliy aholi harakatiga bir vaqtning o'zida kuchli yuklama tushishiga olib keladi.

1-jadvalda overtourismni kamaytirish bo'yicha xorijiy manzillarda qo'llanilgan asosiy instrumentlar va 2024-yilga oid aniq statistik ko'rsatkichlar keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Venetsiya, Amsterdam, Barselona va Bréa oroli misollarida turli boshqaruv modellari qo'llanilgan (1-jadval).

1-jadval. Overtourismni kamaytirish bo'yicha xorijiy manzillar instrumentlari va 2024-yil ko'rsatkichlari

Manzil (keys)	2024-yilda "bosim"ni ko'rsatuvchi aniq raqam	Asosiy instrumentlar portfeli	2024-yilda qayd etilgan (natija/signal)
Venesiya (Italiya)	2024 pilot: 2,4 mln yevro tushum; 2,7 mln yevro tizim xarajati; 450 000 kunlik tashrifchi to'lov qilgan; tarixiy markazda aholi 48 283, turistik o'rinlar 51 129 [23]	Kunlik tashrif uchun kirish to'lovi (QR-nazorat), pik kunlar ro'yxati; rezident va soliq to'lovchi toifalarga imtiyoz	Tushum/tashrifchi $\approx$ 5,33 yevro; moliyaviy samara pilotda cheklangan (xarajat ustun), ammo boshqaruv arxitekturasini shakllangan
Amsterdam (Niderlandiya)	2024-yilda turistik kechalashlar 22,9 mln (shahar siyosatidagi 20 mln chegaradan yuqori)	Yangi mehmonxona qurilishiga cheklov: faqat boshqa mehmonxona yopilsa, joy soni oshmasa, barqarorroq bo'lsa; "balans" siyosati va chegara maqsadi	Rejim: "o'sishni to'xtatish" emas, sigimdan oshmaslikka qaratilgan; 20 mln me'yor — siyosiy-ma'muriy "qizil chiziq" [24; 25]



Barselona (Ispaniya)	Destination Barcelona mehmonxonalari: 12,5 mln turist, 32,6 mln kechalash [21]; Kataloniya statistikasida "Barcelona" brendi mehmonxona kechalashlari 23,3 mln [22]	Iqtisodiy regulyatorlar (turist to'lovlari), markazda qisqa ijarani cheklash; 10 101 lisenziyalı turistik kvartiralarini bekor qilish rejasi (2028 gacha) [26]	O'rtacha mehmonxonada qolish ≈ 2,61 kecha (32,6/12,5) [21]; ijara siyosati — "uy-joy bozori" bosimini kamaytirishga qaratilgan [26]
Bréa oroli (Fransiya, Bretan)	2024 yozı: kunlik cheklov 4 700 tashrifchi (ayrim soatlarda), doimiy aholi 412 [28]	Qat'iy kvota, QR/ro'yxatdan o'tish, vaqtli cheklov, ekotizim muhofazasiga mos rejim	Ekologik nuqtada "sifat ustuvor" modeli; shaharlarga to'liq ko'chirish qiyin, ammo "kvota+nazorat" samaradorligi yuqori

Venetsiya tajribasi kunlik tashrif uchun kirish to'lovi orqali moliyaviy signal berishga asoslangan. 2024-yil pilot natijalariga ko'ra, 450 mingdan ortiq kunlik tashrifchi to'lov qilgan bo'lib, 2,4 mln yevro tushum olingan, biroq tizim xarajatlari 2,7 mln yevroni tashkil etgan [23]. Bu holat moliyaviy samaradan ko'ra, boshqaruv va nazorat arxitekturasini shakllantirish muhimroq ekanini ko'rsatadi.

Amsterdamba esa asosiy e'tibor me'yoriy cheklovlarga qaratilgan. 2024-yilda turistik kechalashlar 22,9 mlnni tashkil etib, belgilangan 20 mln chegaradan oshib ketgan [24; 25]. Bu esa faqat "chegara belgilash" yetarli emasligini, balki qat'iy nazorat va alternativ takliflar bilan birga olib borilishi zarurligini anglatadi.

Barselona tajribasida esa asosiy muammo turistlar oqimi emas, balki uy-joy bozoriga tushayotgan bosim sifatida talqin qilinadi. Qisqa muddatli ijarani cheklash orqali ijtimoiy sig'imni tiklashga qaratilgan siyosat olib borilmoqda [26]. Bréa orolida esa qat'iy kvota va vaqtli cheklovlar ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan tezkor va samarali natija bergan [28].

Mazkur qiyosiy tahlil Samarqand uchun muhim xulosani beradi: tarixiy markazga tushayotgan bosimni kamaytirishda yakka instrumentdan ko'ra "narx + vaqt-slot + hududiy dispersiya" kombinatsiyasi yuqori samara beradi.

2-jadvalda O'zbekiston hududlari bo'yicha 2024-yil joylashtirish infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, u hududlarning turizm shakllanayotgan turli "faoliyat profili"ni aniqlash imkonini beradi. Toshkent shahrida 1 368 511 nafar joylashtirilganlar soni poytaxtning biznes, konferensiya va shahar turizmidagi yetakchi mavqei tasdiqlaydi [13]. Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida joylashtirilganlar sonining yuqoriligi ushbu hududlarda madaniy meros obyektlariga tayangan turizm modelining barqaror shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, joy/obyekt ko'rsatkichining o'rtacha darajada bo'lishi kichik va o'rta formatdagi mehmonxonalar hamda oilaviy mehmon uylari tarmog'ining moslashuvchan va bozorga yaqin infratuzilma sifatida rivojlanayotganini anglatadi.

Sirdaryo viloyatida "kishi/joy" indikatorining nisbatan yuqori bo'lishi qisqa muddatli joylashuv, tranzit turizm va xizmatlar aylanuvchanligining yuqoriligini ko'rsatadi. Ushbu holatni mavsumiylik, tashrif motivlari va o'rtacha qolish muddati bilan birgalikda tahlil qilish hududiy turizm strategiyasini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

Samarqand viloyati bo'yicha jadvaldan olinadigan asosiy xulosa shundan iboratki, joylashtirish infratuzilmasining izchil kengayishi turistik sig'imni oshirishga xizmat qilmoqda, biroq kunduzgi tashriflar oqimini samarali yo'naltirish uchun maxsus boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurati kuchayib bormoqda. Bu holat turistik oqimlarni vaqt va makon bo'yicha qayta taqsimlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Samarqandda turizmning iqtisodiy samarasi asosan tarixiy "yadro" hududlarda shakllanayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonning shahar miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri kompleks tarzda boshqarilishi lozim. Transport tizimini optimallashtirish, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, ko'cha savdosini tartibga solish bo'yicha integratsiyalashgan choralar turizmning shahar hayotiga uyg'un integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. 2024-yilda yangi mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylari tashkil etilishi infratuzilmani diversifikatsiya qilish va xizmatlar spektrini kengaytirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanadi [8]. Shu bilan birga, istiqbolda barqarorlikni ta'minlash uchun sig'imni oshirish bilan bir qatorda, zichlikni boshqarish, tashriflar vaqtini diversifikatsiya qilish va "ko'p odam — bir vaqt — bir nuqta" ssenariysini bosqichma-bosqich yumshatishga qaratilgan hududiy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish Samarqand uchun ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda (2-jadval).



2-jadval. O'zbekiston hududlarida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (2024)

Hudud	Obyektlar (ta)	Nomerlar (ta)	Joylar (ta)	Joylashtirilganlar (kishi)	Joy/obyekt	Kishi/joy
Toshkent shahri	714	18 062	35 883	1 368 511	50,3	38,1
Samarqand viloyati	361	6 603	13 827	428 451	38,3	31,0
Xorazm viloyati	278	4 381	8 660	303 396	31,2	35,0
Buxoro viloyati	250	3 980	8 423	267 200	33,7	31,7
Toshkent viloyati	151	3 621	7 586	166 654	50,2	22,0
Surxondaryo viloyati	125	1 834	4 104	69 381	32,8	16,9
Navoiy viloyati	114	2 671	5 980	119 030	52,5	19,9
Namangan viloyati	108	2 024	5 043	126 799	46,7	25,1
Farg'ona viloyati	105	2 265	5 329	80 210	50,8	15,1
Jizzax viloyati	93	1 382	2 988	85 163	32,1	28,5
Qashqadaryo viloyati	66	1 215	2 528	73 193	38,3	29,0
Sirdaryo viloyati	26	396	731	33 836	28,1	46,3

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, overtourism muammosini bartaraf etishda yakka instrumentlardan foydalanish ko'p hollarda yetarli samara bermaydi. Faqat moliyaviy signal (masalan, kirish to'lovi) yoki faqat me'yoriy cheklov (taqiq yoki kvota) joriy etilishi qisqa muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq turistik oqimlarning tuzilmasini tubdan o'zgartira olmaydi. Bunday choralar ko'proq "signal effekti"ni yuzaga keltiradi, ya'ni muammo mavjudligi haqida xabar beradi, ammo uni tizimli hal qilishga yetarli bo'lmaydi.

Venesiyada 2024-yilda joriy etilgan kunlik tashrif uchun kirish to'lovi piloti bunga yaqqol misoldir. Pilot doirasida 2,4 mln yevro miqdorida tushum olingan bo'lsa-da, tizimni joriy etish va boshqarish xarajatlari 2,7 mln yevroga yetgani qayd etilgan [23]. Ushbu holat moliyaviy natijaning o'zidan ko'ra, monitoring, nazorat va ma'lumotlarni boshqarishga qaratilgan institutsional arxitektura yaratish muhimroq ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, to'lovning o'zi muammoni hal qilmaydi, u faqat boshqaruv mexanizmlarini ishga tushirish vositasi sifatida samarali bo'lishi mumkin.

Amsterdam tajribasida esa me'yoriy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Shaharda siyosiy-ma'muriy "qizil chiziq" sifatida 20 mln mehmonxona kechalash chegarasi belgilangan va yangi mehmonxona qurilishiga faqat mavjud sig'im oshirilmagan, ekologik va ijtimoiy jihatdan barqarorroq bo'lgan holatlarda ruxsat berilmoqda [24]. Biroq 2024-yilda kechalashlar sonining 22,9 mln nafarga yetgani shuni anglatadiki, faqat chegara belgilashning o'zi yetarli emas. Nazorat, ijro mexanizmlari va muqobil takliflar — xususan, turistlar oqimini boshqa hududlarga yo'naltirish — bilan birga olib borilmaguncha bunday choralar kutilgan natijani bermaydi.

Barselona tajribasi esa overtourismning muhim, biroq ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan jihatini ochib beradi. 2024-yilda shaharda mehmonxonalarda 12,5 mln turist va 32,6 mln kechalash qayd etilgan bo'lsa-da [21], asosiy siyosiy e'tibor turistlar oqimini cheklashga emas, balki uy-joy bozoriga tushayotgan bosimni kamaytirishga qaratilgan. Qisqa muddatli ijaraga nisbatan qat'iy cheklovlar joriy etilishi ijtimoiy sig'imni tiklash va aholi roziligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda [26].

Mazkur xorijiy tajribalar Samarqand uchun muhim umumiy xulosani beradi: "bir bosim — bir yechim" yondashuvi ishlamaydi. Overtourism ko'p omilli hodisa bo'lgani sababli uni faqat bitta instrument yordamida boshqarish mumkin emas. Samarqand sharoitida eng samarali yo'l portfel yondashuvni qo'llashdan iborat bo'lib, bunda narx mexanizmlari, vaqt-slot tizimi, shahar mobilligini boshqarish, hududiy dispersiya, me'yoriy tartibga solish va mahalliy jamoa manfaatlarini hisobga olish birgalikda ishlashi lozim [3; 5; 6].

Samarqandning madaniy meros yadrosi uning turistik jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligining asosiy manbai hisoblanadi. Aynan tarixiy obidalar va madaniy muhit shaharning global turizm xaritasidagi o'rnini belgilaydi. Biroq ushbu yadroning jismoniy, ekologik va ijtimoiy ko'tarish qobiliyati cheklangan. Shu sababli kelajakda shahar turizm siyosatini faqat hajmga asoslangan rivojlanish modeli asosida davom ettirish barqarorlik nuqtayi nazaridan xatarli bo'lib qoladi. Samarqand uchun strategik ramka "sifat ustuvor, zichlik nazoratda" tamoyiliga tayanishi lozim. Bu, birinchi navbatda, turist tajribasi, xizmatlar sifati va madaniy merosni muhofaza qilishni asosiy ustuvorlik sifatida belgilashni anglatadi.

Ikkinchidan, turistik oqimni faqat tarixiy markazda jamlamasdan, uni viloyat tumanlari va yangi marshrutlarga oqilona taqsimlash zarur. Bu nafaqat markazga tushayotgan bosimni kamaytiradi, balki hududiy rivojlanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.



Uchinchi muhim yo'nalish mahalliy aholi roziligi va ishtirokchilligini ta'minlashdan iborat. Aholining manfaatlari va turmush sifati hisobga olinmagan turizm modeli uzoq muddatda barqaror bo'la olmaydi. Shu bois turizm daromadlarining ma'lum qismi jamoa ehtiyojlariga yo'naltirilishi va aholi qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi muhim hisoblanadi. Nihoyat, raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish — real vaqt rejimida monitoring, onlayn bronlash va QR-nazorat tizimlari — turistik oqimni aniq va moslashuvchan boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, Samarqand uchun taklif etilayotgan strategik ramka turizmni "ko'paytirish" emas, balki uni uzoq muddatli, muvozanatli va barqaror boshqarishga yo'naltirilgan bo'lib, overtourism xavflarini kamaytirish bilan birga hududning madaniy va ijtimoiy salohiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2024-yil rasmiy statistik ma'lumotlari asosida O'zbekistonda turistik oqimlarning jadal o'sishi turizmni barqaror va tizimli boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirayotganini ko'rsatdi. Xususan, 2024-yilda O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan chet el fuqarolari sonining 8,2 million nafarga yetgani mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi va jozibadorligi izchil oshib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur dinamik o'sish tarixiy shaharlar va madaniy meros obyektlari zich joylashgan hududlarda infratuzilma, ekologiya va ijtimoiy muhitni muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvlarini joriy etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bu holat turizmni miqdoriy kengaytirish bosqichidan sifat, samaradorlik va hududiy muvozanatga asoslangan boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tkazish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot Samarqand viloyatini ushbu jarayonda strategik ahamiyatga ega ustuvor hudud sifatida belgilaydi. 2024-yilda viloyatga 2,523 million nafardan ortiq xorijiy va 4,715 million nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurgani Samarqandning yetakchi madaniy turizm markazi sifatidagi mavqei yanada mustahkamladi. Shu bilan birga, Registon, Shohi Zinda, Bibixonim va Siyob bozori kabi madaniy "yadro" nuqtalarda tashriflar intensivligining ortishi ushbu hududlarda oqimni samarali boshqarish, vaqt va makon bo'yicha diversifikatsiya qilish hamda infratuzilma yuklamasini optimallashtirish bo'yicha ilg'or mexanizmlarni joriy etish uchun zarur asos yaratadi. Natijada transport tizimi, sanitariya va tozalik, xavfsizlik hamda madaniy merosni muhofaza qilish sohalarida kompleks boshqaruv choralari kuchaytirish orqali shahar muhitining qulayligi va mahalliy aholi roziligini barqaror darajada ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Xorijiy tajribaning 2024-yil statistikasi bilan qiyosiy tahlili overtourismni kamaytirishda yakka instrumentlar emas, balki kompleks portfel yondashuvi nisbatan barqaror natija berishini ko'rsatdi. Venetsiya tajribasida kirish to'lovi boshqaruv signalini bersa-da, Amsterdam misolida faqat sig'im chegarasini belgilash yetarli emasligi, Barselonada esa qisqa muddatli ijara bozorini tartibga solish orqali ijtimoiy sig'imni tiklashga urg'u berilgani aniqlangan. Ushbu holatlar to'lov, kvota, litsenziya, sig'imni oshirmaslik va raqamli nazorat mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Hududlar kesimida joylashtirish infratuzilmasi ko'rsatkichlari O'zbekistonda turizmning tarkibiy farqlanishini ochib berdi. Toshkent shahrida biznes va shahar turizmi ustun bo'lsa, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida madaniy meros turizmi yetakchi hisoblanadi. Bu holat hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan boshqaruv modellarini joriy etish muhimligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar asosida Samarqand viloyati uchun ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ular qattiq taqiqlarga emas, balki barqaror boshqaruvga qaratilgan. Jumladan, erta ogohlantirish va monitoring tizimini joriy etish, madaniy yadro obyektlarida vaqt-slot va differensial narxlash mexanizmlarini qo'llash, shahar mobilligini "park&ride" va piyoda ustuvor rejim orqali boshqarish taklif etiladi. Shuningdek, tarixiy markazda qisqa muddatli ijarani litsenziyalash va "jamoa foydasi" mexanizmi orqali mahalliy aholi manfaatlarini himoyalash muhim hisoblanadi. Turistik oqimni viloyat tumanlariga tarqatish va "yadro-periferiya" marketing yondashuvini kuchaytirish esa markazga tushayotgan bosimni yumshatishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Samarqand misolida overtourismni boshqarish ilmiy asoslangan, moslashuvchan va kompleks yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Taklif etilgan choralar turizmning iqtisodiy samaradorligini saqlagan holda madaniy meros, shahar muhiti va mahalliy aholi manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mihalic, T. (2020). Conceptualising overtourism: A sustainability approach. *Annals of Tourism Research*, 84, Article 103025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0160738320301699>
2. Chaney, D. (2023). A systematic literature review and lexicometric analysis on overtourism. *Journal of Environmental Management*. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0301479723019114>
3. Mihalic, T. (2022). Can overtourism be managed? Destination management and residents' perceptions. *Tourism Review*, 77(1), 16–34. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/TR-03-2021-0114/full/html>



4. Tokarchuk, O., et al. (2022). Estimating tourism carrying capacity in urban context. *Tourism Management*, 91, Article 104505. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0261517722000358>
5. Buitrago-Esquinas, E. M., et al. (2023). A literature review on overtourism to guide the transition to sustainable tourism. <https://idus.us.es/bitstreams/e937a104-5a76-4cb9-ba30-6c972595261d/download>
6. Drápela, E. (2023). Creating strategies to mitigate the adverse effects of overtourism. *Sustainability*, 15(24), 16958. <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/24/16958>
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). 2024 yilda turistik maqsadlarda O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari soni (rasmiy axborot). <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/57882-2024-yilda-turistik-maqsadlarda-o-zbekistonga-kelgan-chet-el-fuqarolari-soni>
8. Samarqand viloyati rasmiy axborot materiali. (2024). Samarqand-Ma'lumot (2024 yil ko'rsatkichlari). https://samarkand.uz/uploads/news_foto/2022/05/Samarqand-Malumat_compressed.pdf
9. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Samarqand viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://samstat.uz/uploads/Press-relizlar/2024/Ijtimoiy/Turizm%202024.pdf>
10. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi. (2024). Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. https://www.qrstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2024/Ijtimoiy_soha_va_barqaror_rivojlanish_statistikasi/turizm-2024.pdf
11. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Andijon viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://andstat.uz/uploads/docs/2024.Turizm%20va%20dam%20olishni%20rivojlantirish.pdf>
12. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Buxoro viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://www.buxstat.uz/uploads/press-relizlar/2024/cost/turizm2024.pdf>
13. Toshkent shahar statistika boshqarmasi. (2024). Tourism 2024: Toshkent shahri. Press-reliz. <https://toshstat.uz/2024/turizm/tourism2024.pdf>
14. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Sirdaryo viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. https://sirstat.uz/uploads/press_reliz/2024%20yil/ishtemol/tur.pdf
15. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Farg'ona viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://fergstat.uz/uploads/pressreliz/2024%20yil/turizm.pdf>
16. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Xorazm viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://www.xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2024/12/Turizm2024.pdf>
17. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Qashqadaryo viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirish. Press-reliz. <https://www.qashstat.uz/uploads/press24/Turizm-Yan-Dek-2025.pdf>
18. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Turizm 2024. Press-reliz. https://surxonstat.uz/uploads/2025/Sentyabr/Turizm_24.pdf
19. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Turizm 2024. Press-reliz. https://namstat.uz/images/Press-Reliz/2025/Turizm2024_avgust.pdf
20. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. (2024). Turizm. Press-reliz. <https://www.navstat.uz/images/Nashrlar/Press-relizlar/2024/Ijtimoiy%20soha/Turizm.pdf>
21. Observatori del Turisme a Barcelona. (2025). Barcelona tourism activity report 2024. <https://observatoriturisme.barcelona/en/noticia/impacte-economic-de-la-despesa-economica-de-lactivitat-turistica-va-creixer-un-105-interanual-el-2024-a-la-destinacio-barcelona/>
22. Idescat. (2024). Statistics on hotel activity: 2024 (provisional). <https://www.idescat.cat/novetats/?id=5113&lang=en>
23. AP News. (2024). Venice expands day-tripper tax in overtourism pilot. <https://apnews.com/article/ef31062e7a6b9e3c831d6a8b746eae1a>
24. Reuters. (2024, April 17). Amsterdam bans new hotels in fight against mass tourism. <https://www.reuters.com/world/europe/amsterdam-bans-new-hotels-fight-against-mass-tourism-2024-04-17/>
25. NLTimes. (2025). Amsterdam's tourism growth slowing due to measures taken by city. <https://nltimes.nl/2025/05/31/amsterdams-tourism-growth-slowing-due-measures-taken-city>
26. The Guardian. (2024, June 22). Barcelona to ban apartment rentals to tourists to cut housing costs. <https://www.theguardian.com/world/article/2024/jun/22/barcelona-to-ban-apartment-rentals-to-tourists-in-bid-to-cut-housing-costs>
27. CBS Statistics Netherlands. (2025). Over 50 million holiday guests in 2024. <https://www.cbs.nl/en-gb/news/2025/10/over-50-million-holiday-guests-in-2024>
28. Le Monde. (2024). Overtourism: The island of Bréhat limits visitors again in summer 2024. https://www.lemonde.fr/en/economy/article/2024/07/23/overtourism-the-island-of-brehat-is-limiting-its-number-of-visitors-again-this-summer_6694883_19.html
29. Murodova, R. (2024). Tourism potential of the Republic of Karakalpakstan. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://elibrary.ru/item.asp?id=79490145>
30. Islamova, Q. (2023). Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish tendensiyalari. *Journal of Tourism and Recreation*. <https://www.researchgate.net/publication/377364075>
31. Kaypova, M. D. (2024). Qoraqalpog'istonda turizmning shakllanishi va rivojlanishi (1991–2022 yy.). PhD avtoreferat. Nukus. <https://www.scribd.com/document/842085236>
32. Kurbonbekova, M., Bayxonov, B., & Nurillayev, M. (2025). Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishi: holat va istiqbollar. International conference materials. <https://www.researchgate.net/publication/384324238>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>